

---

**SUN’IY INTELLEKTNING JAMIYAT HAYOTIGA SALBIY TASIRLARI**

**Rixsiboyev Behzod Alisherovich**

*Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

*Gmail:rixsiboyevbehzod67@gmail.com*

*Tel:+998 99 470 3118*

<https://orcid.org/0009-0005-4277-253X>

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada sun’iy intellektning jamiyatimizga ijobiy hamda salbiy jihatlari tahlil etilgan bo‘lib, bu omillar jamiyat hayotiga qanday ta’siri haqida mushohada qilingan. Shu bilan birgalikda sun’iy intellekt sababidan qanday muammolar yuzaga kelishi va bu masalalarni oldini olish uchun qanday choralar ko‘rish zarurligi yuzasidan tavsiyalar berib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *sunnii intellekt, salbiy ta’sir, muammo, axloqiy normalar, nazoratsiz rivojlanish, maxfiylikning buzilishi.*

**ОТРИЦАТЕЛЬНОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА  
НА ОБЩЕСТВЕННУЮ ЖИЗНЬ**

**Рихсибаев Бехзод Алишерович**

*Преподаватель Гулистанского*

*государственного педагогического института*

*Gmail:rixsiboyevbehzod67@gmail.com*

*Tel:+998 99 470 3118*

<https://orcid.org/0009-0005-4277-253X>

**Аннотация.** *В статье анализируются положительные и отрицательные стороны и влияние искусственного интеллекта, а также рассматриваются факторы влияющие на социальную жизнь. В то же время даны рекомендации относительно того, какие проблемы могут возникнуть из-за искусственного интеллекта и какие меры следует предпринять для предотвращения этих проблем.*

**Ключевые слова:** *искусственный интеллект, негативное воздействие, проблема, моральные нормы, неконтролируемое развитие, нарушение конфиденциальности.*

**THE NEGATIVE IMPACTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON SOCIAL  
LIFE**

**Rikhsiboyev Behzod Alisherovich***Lecturer at Gulistan State Pedagogical Institute**Gmail:rixsiboyevbehzod67@gmail.com**Tel:+998 99 470 3118**<https://orcid.org/0009-0005-4277-253X>*

**Abstract.** *The article examines the factors influencing social life and examines the advantages and disadvantages of artificial intelligence. At the same time, suggestions are made regarding potential issues brought on by artificial intelligence and the steps that should be done to avoid them.*

**Keywords:** *unregulated development, moral standards, privacy infringement, negative impact, and artificial intelligence.*

**KIRISH**

Bugungi kunda paydo bo‘lganiga hech qancha vaqt o‘tmay sun‘iy intellektdan foydalanuvchilar soni keskin oshib bormoqda. Biz bu omildan turli xil sohalarda faol tarzda foydalanib kelmoqdamiz. Xususan tibbiyot, ta‘lim, san‘at, show biznes va bir qancha sohalarda keng imkoniyatlaridan foydalanib vaqtimizni tejamoqdamiz. Bizga ma‘lumki Xitoyda savdo markazlariga kirib biror nima sotib olish uchun kartasiz tizim joriy etilgan va bu tizim sun‘iy intellekt tomonidan boshqarib kelinmoqda. Ayrim mamlakatlarda haydovchisiz taksilar hamda sun‘iy intellekt orqali boshqariladigan dronlar bilan yuk tashish xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan. Shunga qaramasdan sun‘iy intellekt bugungi kunda biz uchun shunchaki yordamchi xolos. “Lekin bu holat qachongacha davom etadi?”, “Bu insoniyat uchun qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?” degan savollar bilan o‘ylanayotgan insonlar oramizda talaygina.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

So‘ngi yillarda sun‘iy intellekt ko‘p muhokamalarga sabab bo‘lib kelmoqda. Maqolada tahlil qilingan adabiyotlar sun‘iy intellektning salbiy hamda ijobiy jihatlari, yuzaga kelgan muammolar va ularning yechimlari haqida yozilgan. Bu maslada bir qancha olimlarning ilmiy tahlillari hamda maqolalari mavjud bo‘lib Qodirova Gulchehra Muminovnaning “Sun‘iy intellekt va uning insoniyat faoliyatida tutgan o‘rni” nomli, maqolasida sun‘iy intellektning zamonaviy jamiyatga ijobiy ta‘siri va bugungi kundagi o‘rni hamda paydo bo‘lgan imkoniyatlar bilan birgalikda yana salbiy oqibatlari ham qisqacha eslatib o‘tilgan. Bahromov Nasimbek Xislatjon o‘g‘li va boshqa mualliflar tomonidan yozilgan maqolada sun‘iy intellektning barcha jabhalarga kirib borishi bilan birga nazoratga olinmay kelinayotgan jihatlari hamda bundan so‘ng kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy jihatlari ham urg‘u

beradi. Ushbu maqolada nazoratsiz rivojlanishni natijasida yuzaga keladigan ahloqiy hamda huquqiy muammolar ilmiy asosda yoritiladi. Usmonbekova E’zoza va D.Mirzaakbarovning "Jamiyatda sun’iy intellektning bugungi kundagi imkoniyatlari" mavzusidagi maqolasida sun’iy intellektdan noto’g’ri foydalanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan xavf-xatarlarga urg’u beriladi.

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat hayotiga ko’rsatgan ta’siri texnikaviy va hisoblashga asoslangan bo’lib, sun’iy intellektning imkoniyatlarini faqatgina ijobiy tomonlari haqida fikr yuritilgan. (Turing, 1950; McCarthy, 1980).

1990-yillardan boshlab jamiyat hatoyiga ta’siri tahlil qilib boshlanadi. Bu borada, Shoshana Zuboff o’zining "Surveillance Capitalism" (2014) asarida sun’iy intellekt texnologiyalarining inson xatti-harakatlari, iste’molchilar xulq-atvori va siyosiy qarorlar ustidan qanday nazorat vositasiga aylanganini tahlil qildi. Nick Bostrom (2014) esa "Superintelligence" asarida sun’iy intellekt inson ongidan ustun bo’lib, global tahdidga aylanishi mumkinligini falsafiy asosda ko’rsatdi. 2010-yillarda Timnit Gebru, Joy Buolamwini kabi tadqiqotchilar sun’iy intellekt algoritmlarining irqiy va jinsiy diskriminatsiyaga olib kelishi mumkinligini isbotlab, "algorithmic bias" (algoritmik tarafkashlik) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdilar.

#### TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijasi sifatida sun’iy intellektning bir qancha salbiy jihatlarini ham sanab o’tish mumkin:

Birinchidan ishsizlik sonining oshishi.

Ya’ni bugungi kunda arim takrorlanuvchi harakatlarni amalga oshiriladigan ishlar mavjud bo’lib bu ishlarda odamlar o’rnini sun’iy intellekt ulangan robotlar malakaga oshirib kelmoqda. Bundan tashqari sun’iy intellekt musiqa yozishi, SMM xizmatlarini amalga oshirishi va IT sohasidagi ayrim amallarni bajarishi mumkin. To’g’ri musiqa va rasmlar odam yozgandek jonli bo’lmasligi yoki zavq bermasligi, IT sohasida boshqa kuchli mutaxassislar o’rnini egallay olmasligi mumkin, ammo bu hozircha shunday. Agar biz sun’iy intellektning kelajagiga nazar solsak, bu ishlar yaqin 20 yil ichida muammo tug’dirish ehtimoli yuqori.

Ikkinchidan maxfiylikning buzilish ehtimoli.

Sun’iy intellekt biz bilan muloqotga kirishar ekan bizning ma’lumotlarimizni qo’lga kiritishi va buni istalgan odamga taqdim etishi yoki kelajakda bizning ma’lumotlarimizdan erkin o’z manfaatlarini yo’lida foydalanishi mumkin bo’ladi.

Uchinchidan noto’g’ri ma’lumotlar taqdim etilishi.

Hammaga ma’lumki sun’iy intellekt ma’lumotlaridan manba sifatida foydalanib bo’lmaydi. Sababi shuki sun’iy intellekt odamlar kabi bilmagan ma’lumotlarini ham bilgan

ma'lumotlariga yaqin kelsa shu ma'lumotlarni taqdim etish ehtimoli bor. Lekin bugungi kunda ayniqsa talabalar ya'ni yoshlar orasida sun'iy intellektdan hech qanday ko'nikmalarsiz foydalanib kelmoqdalar va bu o'z navbatida tushunchalarni noto'g'ri shakllanishiga olib kelishi ham mumkin.

Kelajakda bo'lsa bu salbiy jihatlar ortishi mumkin

To'rtinchidan nazoratsiz rivojlanish

Sun'iy intellekt kelajakda o'z imkoniyatlarini erkin holatda rivojlantirish orqali insoniyat nazoratidan chiqib ketishi va o'z navbatida o'z manfaatlarini inson manfaatlaridan ustun ko'rish ehtimoli mavjud.

Beshinchidan axloqiy hamda huquqiy muammolar.

Sizga ma'lumki insonlar qandaydir jinoyat qilsa qonun tomonidan yoki odob qoidalarini buzgan taqdirda jamiyat tomonidan nazorat qilinadi. Ammo masala shundaki sun'iy intellekt tomonidan qandaydir kamchiliklar yo'l qo'yilsa yoki kimnidir huquqlari buzilgan taqdirda qonunchilikda hech qanday choralar ko'zda tutilmagan. Bu bo'lsa, bizni o'ylanishga majbur etadi.

Oltinchidan sun'iy intellektga haddan oshiq tayanib yuborilsa tanqidiy fikrlash va erkin xulosa qilish kabi qobiliyatlarning sustlashishi kuzatilishi mumkin.

Lekin bu sun'iy intellekt imkoniyatlaridan voz kechishimizga sabab bo'lmaydi, aksincha biz sun'iy intellektdan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz zarur bo'ladi.

Darhaqiqat, har bir yangilik yoki inovatsiya ortida doim xavf-xatar majud. Aytaylik mashinalar biz uchun uzog'imizni yaqin qiladi, xuddi sun'iy intellekt kabi vaqtimizni tejaydi ammo bu omil sababidan baxtsiz hodisalar juda ko'plab yuz berishi hech kimga sir emas. Ma'lumot uchun kun.uz saytining xabar berishicha 2022 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston hududida jami 9.9 ming baxtsiz hodisalar yuz bergan bo'lib shundan 3% holatda o'lim bilan yakunlangan[4,1 b]. E'tibor bering bu faqatgina O'zbekiston hududida, agar buni dunyo miqyosida olib qaraydigan bo'lsak bu sonlar yanada ko'proq. Sun'iy intellekt ham insoniyatning boshqa kashfiyotlari kabi ayrim salbiy jihatlardan holi emas.

Xo'sh u holda nima ishlarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi? Qilishimiz mumkin bo'lgan eng to'g'ri yo'l qaysi?

Albatta biz sun'iy intellekt imkoniyatidan voz kechishdan ko'ra u bilan ishlashda ayrim qoidalarni joriy qilganimiz yaxshiroq.

Sun'iy intellektni yaratuvchi kompaniyalar tomonidan tizimiga axloqiy normalarni ham qo'shishi zarur;

Sun'iy intellekt orqali boshqariladigan tizim xatoliklari sababli yetkazilgan zararlarni ishlab chiqaruvchi kompaniya zimmasiga yuklash ham maqsadga muvofiq;

Davlat tomonidan ijtimoiy himoya choralarini kuchaytirish yani ishsilik va yangi kasblarga moslashishga ko‘maklashuvchi qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish zarur;

#### XULOSA

Maqolada ko‘rib chiqilgan tahlillar va tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, sun‘iy intellektning jamiyatga ta‘siri ikki tomonlama bo‘lib, uning ijobiy imkoniyatlari bilan bir qatorda jiddiy salbiy oqibatlari ham mavjud. Shubhasiz, sun‘iy intellekt jamiyat rivojlanishiga, vaqtni tejashga, samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda, biroq uning nazoratsiz va me‘yorsiz rivojlanishi qator xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Avvalo, sun‘iy intellekt sababli kelib chiqayotgan ishsizlik darajasining oshishi ijtimoiy muammolarning keskinlashuviga olib keladi. Ish o‘rinlarini yo‘qotayotgan insonlar uchun qayta malaka oshirish va yangi kasblarga moslashuv masalasi davlat siyosatining dolzarb yo‘nalishiga aylanishi kerak. Shuningdek, maxfiylikning buzilishi masalasi alohida xavf tug‘diradi. Sun‘iy intellekt algoritmlarining insonlarning shaxsiy ma‘lumotlarini nazoratsiz ishlatishi va bu ma‘lumotlarning xavfsizligi yetarli darajada ta‘minlanmaganligi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu borada, shaxsiy axborotni himoya qiluvchi qonunchilik va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Bundan tashqari, noto‘g‘ri axborot tarqalishi va tanqidiy fikrlash qobiliyatining sustlashuvi ham sun‘iy intellektdan foydalanishdagi asosiy xavflardan biri hisoblanadi. Bu bo‘lsa o‘z navbatida yoshlar orasida axborotga tanqidiy yondashuvni shakllantirish, ta‘lim tizimida axborot savodxonligini oshirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish zarurati vujudga keladi. Sun‘iy intellektning nazoratsiz rivojlanishi, uning inson nazoratidan chiqib ketishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Buning oldini olish uchun ishlab chiqaruvchi kompaniyalar axloqiy va huquqiy normalarni o‘z tizimlariga majburiy tarzda joriy etishi hamda xatoliklar uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishi zarur. Bu sohada qonuniy tartibga solish mexanizmlari yaratilishi hamda xalqaro standartlarga muvofiq tartibga soluvchi institutlar faoliyat yuritishi kerak.

Shunday qilib, sun‘iy intellektdan to‘liq voz kechish insoniyat rivojlanishini to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Biroq, uning foydalanish madaniyatini shakllantirib, yuzaga keladigan muammolarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish, texnologik innovatsiyalarni ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish orqali kelajakdagi salbiy oqibatlarni minimal darajaga tushirish mumkin. Bu yo‘nalishda davlatlar, kompaniyalar va jamiyatning barcha qatlamlari hamkorligida kompleks choralar ko‘rilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyot:

1. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS SUN‘IY INTELLEKT VA UNING INSONIYAT FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI - Kodirova Gulchexra Muminovna

2. Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi SUN’IY INTELLEKTNING JAMIYATGA IJTIMOIIY, IQTISODIY VA MADANIY TA’SIRI Bahromov Nasimbek Xislatjon o‘g‘li va boshqalar

3. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ [http://www.newjournal.org/Выпуск\\_журнала\\_№34\\_Часть\\_5\\_Декабрь\\_2023](http://www.newjournal.org/Выпуск_журнала_№34_Часть_5_Декабрь_2023) 942181-3187 JAMIYATDA SUN’IY INTELLEKTNING BUGUNGI KUNDAGI IMKONIYATLARI Usmonbekova E’zoza Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti O‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs talabasi. D.Mirzaakbarov Farg‘ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi

4. <https://kun.uz/news/2023/02/07/ozbekistonda-yth-sonini-bir-yilda-15-foizga-qisqartirish-rejalashtirilmoqda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F02%2F07%2Fozbekistonda-yth-sonini-bir-yilda-15-foizga-qisqartirish-rejalashtirilmoqda> 1 b